



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ VA SUV XO'JALIGI  
VAZIRLIGI  
SAMARQAND QISHLOQ XO'JALIK INSTITUTI**

*«Agrokimyo, tuproqshunoslik va  
o'simliklarni himoya qilish»  
kafedrasini  
5620300 – O'simliklar himoyasi va  
karantini ta'lim yo'nalishi  
bakalavriat bitiruvchisi*

**USMONOV OBIDJON SHAROFIDINOVICHNING**

***MALAKAVIY BITIRUV ISHI***

**Mavzu: Pyavisa, zarari, bioekologiyasi va unga qarshi  
kurash samaradorligi**



*Ilmiy rahbar, katta o'qituvchi* \_\_\_\_\_ *S.I.Ahmedov*

*Malakaviy bitiruv ishi Agrokimyo,  
tuproqshunoslik va o'simliklarni  
himoya qilish kafedrasini yig'ilishi-  
da muhokama qilindi va DAK himoya-  
siga tavsiya etildi. Kafedra mudiri,  
dosent* \_\_\_\_\_ *A.O'.Maxmatmurodov*  
«\_\_\_» \_\_\_\_\_ *2014 yil*  
*Bayonnoma №* \_\_\_\_\_

*Agronomiya fakulteti  
dekani, dosent*

\_\_\_\_\_ *D.S.Normurodov*  
«\_\_\_» \_\_\_\_\_ *2014 yil*

**SAMARQAND-2014**



«Agrokimyo, tuproqshunoslik va o'simliklarni himoya qilish»  
kafedrasining \_\_\_\_ - sonli majlis

## **B A Y O N I D A N      K O' C H I R M A**

«\_\_»\_may\_ 2014 yil

Samarqand shahri

*Qatnashdilar:* A.Maxmatmurodov-kafedra mudiri, F.Hoshimov – kafedra professori, P.Uzoqov – kafedra professori, M.Hayitov – kafedra dosenti, B.Abdullayev - kafedra dosenti, T.Ortiqov - kafedra dosenti, E. Umurzoqov - q.x.f.doktori, S.Ahmedov - kafedra katta o'qituvchisi, O.Nazarov – kafedra katta o'qituvchisi, R.Rasulov - kafedra assistenti, M.Mashrabov - kafedra assistenti, A.Sadinov - kafedra assistenti, Sh.Hazratqulov - kafedra assistenti, A. Xudoyqulov- kafedra assistenti, T.G'oziyev – kafedra assistenti, O. Po'latov - kafedra assistenti, L.Sonamyan - kafedra laboranti, M. G'ulomova- kafedra laboranti, hamda kunduzgi bo'limning kafedrada malakaviy bitiruv ishi bajargan 57 nafar talabasi.

### ***Kun tartibi:***

Kunduzgi bo'lim bitiruvchisi Usmonov Obidjon Sharofidinovichning «**Pyavisa, zarari, bioekologiyasi va unga qarshi kurash samaradorligi**» mavzusidagi malakaviy bitiruv ishi muhokamasi.

### ***So'zga chiqdi:***

Kafedra mudiri, dosent A. Maxmatmurodov O'zbekiston Respublikasi OO'MTV ning 9.06.2010 yil 225 sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan «Oliy o'quv yurtlari bakalavrlarining malakaviy bitiruv ishi» to'g'risidagi nizomiga asosan har bir malakaviy bitiruv ishi kafedrada muhokama qilingandan keyin DAK himoyasiga tavsiya etilishi kerakligini aytib o'tdi. Kafedramizda kunduzgi bo'lim bitiruvchisi Usmonov Obidjon Sharofidinovichning «**Pyavisa, zarari, bioekologiyasi va unga qarshi kurash samaradorligi**» mavzusidagi malakaviy bitiruv ishi muhokamasini eshitamiz.

Shundan so'ng Usmonov Obidjon Sharofidinovich o'z malakaviy bitiruv ishi mavzusini dolzarbligini, ahamiyatini, ilmiy yangiligini, olingan natijalarni va qilingan xulosalarni ma'ruza qildi.

Ma'ruzachiga mavzu yuzasidan 4 ta savol berildi, u berilgan savollarga javob berdi.

Muhokamada F.Hoshimov, P. Uzoqov, T. Ortiqov, A. Maxmatmurodov, S. Ahmedov va B. Abdullayevlar ishtirok etdilar.

### ***QAROR QILINDI:***

1. Kunduzgi bo'lim bitiruvchisi Usmonov Obidjon Sharofidinovichning «**Pyavisa, zarari, bioekologiyasi va unga qarshi kurash samaradorligi**» mavzusidagi malakaviy bitiruv ishi barcha ko'rsatkichlari bo'yicha DAK talablariga javob berishi inobatga olinib, u DAK da himoya qilish uchun tavsiya etilsin.

**Majlis raisi, dosent**

**A.Maxmatmurodov**

**Kotiba**

**M.G'ulomova**

**Яратганга минг бор шукурки, ўз  
донимизга, ўз беминнат  
нонимизга эга бўлган шу  
кунларга ҳам етиб келдик.....**

**И. А. Каримов**



# M u n d a r i j a

**Bet**

Kirish.....	
I. Adabiyotlar sharhi.....	
II. Kuzgi bug' doyni ahamiyati va agrotexnikasi.....	
III. Dala tajribalarini o'tkazish joyi va tuproq iqlim sharoiti Tajriba tizimi va uslubi.....	
.Tuproqlari.....	
Iqlimi.....	
Tajriba qo'llaniladigan pereparatlar va bug'doy navining tarifi.....	
IV. Tajriba natijalari.....	
Pyavisa (shilimshiurt) ning biologiyasi va rivojlanishi.....	
Tajriba maydonida pyavisani rivojlanish dinamikasi.....	
Pyavisaga qarshi qo'llanilgan kimyoviy pereparatlarni biologik samaradorligi.....	
Tajriba maydonida kuzgi bug'doyning o'sishi va rivojlanishi.....	
Kuzgi bug'doyni tajriba dalasidagi hosildorligi.....	
V. Tajriba natijalarining iqtisodiy samaradorligi.....	
VI. HAYoT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI VA EKOLOGIK MUAMMOLAR.....	
VII. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2013 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasidan kelib chiqadigan asosiy vazifalar.....	
Xulosa va takliflar.....	
Foydalanilgan adabiyotlar.....	

ILOVALAR.....

Internet ma'lumotlari.....

## **Kirish.**

Respublikamizda o'sib borayotgan aholini sanoatni chorvachilikni don maxsulotlariga bo'lgan ehtiyojini to'la qondirishga sug'oriladigan yerlardan samarali foydalanish tuproq unimdorligini mutasul oshirib borish, kasalliklar zararkunandalar va begona o'tlarga qarshi uyg'unlashgan usullarni qo'llash qishloq xo'jaligida eng dolzarb muammolardan biridir.

Respublikamiz Prezidenti I. A. Karimov „Don mustaqilligiga erishmay turib, to'la iqtisodiy mustaqillikka erishib bo'lmaydi ” deb ta'kidlagan edilar .

Kuzgi bug'doy asosiy don ekini bo'lib hisoblanadi. Kuzgi bug'doy ekiladigan maydonlar bahorgi bug'doyga nisbatan 1.5 -2.0 marta ko'b xosil beradi . Kuzgi bug'doyning doni sifatli bo'lib undan non va non maxsulotlari tayorlanadi .

Shu bilan birgalikda kuzgi bug'doy zararkunandalar bilan kuchli zararlanuvchi o'simlik bo'lib xisoblanadi.

Mavsum davomida bug'doy maydonlariga 128 turdan ortiq .

Zararkunandalar rivojlanadi va zarar keltiradi.

Mustaqillik yillarida kuzgi bug'doy ekiladigan maydonlarni keskin kengayib ketishi natijasida uni zararkunandalar kasalliklar va begona o'tlardan himoya qilish masalalari muxim axamyat kasb etadi .

O'simliklarni ximoya qilish tadbirlarini unimli va samarali amalga oshirish , bug'doy hosilini saqlab qolishini eng muhim usillaridan biridir .

Yer yuziga yiliga zararkunandalar ,kasalliklar va begona o'tlar tufayli yalpi g'alla xosilini 34% yo'qotadi . Ekilayotgan bug'doy donini zararkunanda kasalliklar va begona o'tlarga umumiy himoya qilish tizimi tupdan o'zgarmoqda .

Pestisidlar keng ko'llamda ishlatilishi zararli oqibatlariga olib kelishi tufayli kiyingi yillarga biologik usulda kurashishga qiziqish tobora kuchaymoqda .

Hozirgi davirda bug'doy zararkunandalariga qarshi kurashda uyg'unlashgan himoyaga katta ahamiyat beradi. Ushbu kurash usuli keng manoda ega bo'lib barcha kurash vositalarini kerakli vaqtda navbatlab, zararkunandalarni zararli iqtisodiy chegarasini xisobga olgan holda ishlatish tabiatdagi foydali hashoratlarning sonini xisobga olgan holda kurash choralarini qo'llash kabi omillarga etibor berishga to'ri keladi. Uyg'unlashgan ximoya usulida zararkunandalar sonini kamaytirish bilan birga tabiatdagi foydali hashoratlarni ko'paytirishga o'simlikni sog'lom rivojlanishga sharoit yaratib beradi.

Ko'pchilik olimlar fikricha zararkunandalarga qarshi qo'llaniladigan har qanday kurash vositalarini qo'llaganda ular sonini to'liq yo'qotishini o'ylamasdan balki ular sonini kamaytirishga erishish muhimroqdir.

CHunki zararkunandalarni yo'qotsak ularning tabiiy kushandarlari ham o'z o'zidan yo'qoladi. Natijada tabiatdagi tabiiy biosinoz buziladi shu narsani alohida takidlash lozimki ona tabiatning o'zi ham evalutsiya taraqqiyot davomida boshqa mavjudotlar singari xashorotlar olamida ham malum muozanatni saqlaydi.

Qishloq xo'jaligida ishlatilayotgan kimyoviy vositalar tirik mavjudotlarga salbiy tasir etmoqda.

Tuproqqa solinayotgan o'g'itlar miqdori jadal rivojlanishida ortib bormoqda.

Respublikamiz qishloq xo'jaligida har yili 1.4-1.5 mln tonna mineral o'g'itlar 85-90 ming tonna turli pestisidlar ishlatilmoqda.

O'rtacha har bir gektar sug'oriladigan maydonga 300-350 kg mineral o'g'it va 25 kg pestisid to'g'ri keladi. Ushbu ko'rsatkichlarni kamaytirish uchun uyg'unlashgan kurash tizimidan foydalanish yani zararkunandalarni zarar keltirish darajasini xisobga olgan holda ularga qarshi kurash usullarini tanlash masdga muvofiq bo'ladi.

Ana shuni inobatga olib biz malakaviy bitiruv ishimizda kuzgi bug'doyni ashaddiy zararkunandasi shilimshiqqurt (pyavitsa) ning

rivojlanishi va zararini aniqlab unga qarshi kurash miqdorlarini belgilashni hamda kurash choralarini samaradorligini o'rganishni o'z oldimizga maqsad qilib quydik .

- Bunda quydagilarga e'tibor qaratiladi kuzgi bug'doyni o'sish va rivojlanishini organish.

- Shilimshiqqurtni rivojlanishini va zararini aniqlash

- Qo'llanadigan kurash choralarini samaradorligini aniqlash hosildorlik natijalarini o'rganish .

Biz dala tajribalarimizni Samarqand viloyati Bulung`ur tumani "Omon bobo" fermer xo'jaligi dalalarida o'tkazdik .

## I BOB.

### Adabiyotlar sharhi.

G'alla ekinlari zararkunandalari orasida Markaziy Osiyoda keng tarqalani va eng xavflisi shilimshiqqurt (pyavitsa) bo'lib hisoblanadi ( Yaxontov 1959 ) shilimshiqqurt bahor seryog'in kelgan yillari kamroq yani hosildorlikni 5-12 % gacha, bahor quruq kelgan yillari esa ko'hroq yani hosildorlikni 15-35% gacha kamaytirib yuboradi ( Belyayev 1974 ). Shilimshiqqurt qo'ng'izlari g'llagulli o'simliklar bargini kemirib uzunchoq teshikchalar hosil qilsa? lichinkalari bahorgi ekinlar ( bug'doy, arpa va suli) kuchli darajada zararlaydi. ( Hamrayev va boshqalar 1999 ).

Qurg'oqchilik yillari pyavitsa hosilga kuchli salbiy tasir ko'rsatadi va hatto hosilning yarmi yo'qotilishi mumkun ( Hamroyev va boshqalar).

Pyavitsa qo'ng'izlari tuproqning yuza yoki 8-5 sm chuqirligida qishlaganligi uchun shudgorlangan yoki ag'darmasdan haydalgan yerlarda uni soni ko'payib ketishi kuztilagan (Osmolovkiy 1991).

Pyavitsa qo'ng'izlari va lichinkalari odatda yumshoq bug'doyni qattiq bargli navlarini? qattiq bug'doyni? sulini va sholini zararlaydi, shuning uchun ham doimo qattiq bug'doy yumshoq bug'doyga nisbatan ko'proq zararlanadi (Yaxantov 1964).

Zararkunanda qo'ng'izlari mart oxiri-aprel boshlarida ekinlarga tarqaladi va taxminan ikki haftadan kiyin urg'ochi qo'ng'izlar arpa bug'doy barglariga tuxim quyishga kirishadi.

Bir urg'ochi qo'ng'iz o'rtacha 200 ta tuxum quyadi. (Hamroyev va boshqalar 1999).

Pyavitsa qo'ng'izlari va lichinkalarning iqtisodiy zarar keltirishi mezoni aprel – may oylarida 1m<sup>2</sup> da 10 -20 dona qo'ng'iz yoki 100 ta poyada 50 lichinkadan oshmasligi loszimdir, agar ular soni ushbu mezon sonidan ohsa kimyoviy kurash vositalari qo'llash tavsiya etiladi. (Eshmatov 1999).

Pyavitsa qo'ng'izlariga qarshi qo'llaniladigan kimyoviy vositalar O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligida ishlatish uchun ruxsat etilgan pestisidlar va agroximikatlar ro'yxatida batafsil keltirilgan (Ro'xat 2007-2010).

Piyavitsa qo'ng'izlari va lichinkalari, shuningdek qisman tuxim hamda g'unbaklarini xon qizi qo'ng'izlari, oltinko'zlar, yirtqich qandalalar akasiya kanalari va boshqa turdagi tabiiy kushandalar muntazam qirib kamaytirib turiladi. (Osmslovskiy? Bondorenko 1996).

Ammo xonqizi, oltinko'z va anostid kanalari rivojlanishi ular issiqsevar bo'lganlari uchun may – iyun oylariga to'g'ri keladi, pyavitsa esa apreldayoq paydo bo'ladi. (Migulin 1990).

Samarqand viloyati Bulung'ur tumani "Omon bobo" fermer xo'jaligida pyavitsa qo'ng'izi va lichinkalari suvli maydonga nisbatan lalmi g'allaga ko'b talofat etkazadi, 1959 yilda hatto lalmi g'allaning hosilini 65% gacha kamaytirib yuborganligi ma'lum ( Migilin 1960).

Qamashi g'allachilik stansiyasida esa lalmikorlikda qattiq bug'doy hosili 45-48 %? yumshoq bug'doy hosili esa 22-25 % kamaygan (Sosnina 1965), pyavitsa zararlagan bug'doy va arpa donlarini sifati keskin kamayadi, jumladan 1000 dona don og'irligi 8-10%, oqsil miqdori 3-6 %, unuvchanligi 8-12 % ga kamayganligi kuzatilgan (Kosobutkiy 1965).

Hozirgi davrda g'alla zararkunandalariga qarshi kurashda uyg'unlashgan kurash tizimini qo'llash keng yo'lga quyilmoqda.

Bunda tabiiyki har qanday kurash chorasini qo'llaganda albatta birinchi navbatda zararkunandalarni yo'qotishga qaratiladi.

Piyavitsani yo'qotishda birinchi navbatda agrotexnik kurash katta ahamiyat kasb etadi, bunda urug'lik yetishtirishga e'tibor berish almashlab ekishni yo'lga quyish, albatta tezroq qatlamini ag'darib haydash zarurdir, chunki qatlam ag'darilganda tuproqda qishlayotgan zararkunandalarning 70-90 % nobud bo'ladi. (Areshnikov va boshqalar 2004).

Piyavitsaga qarshi qo'llaniladigan insektisidlar dala sharoitida +15° C dan yuqori haroratda qo'llanilganda yuqo'ri samara beradi, ammo uning qo'ng'izlari o'rtacha sutkalik harorat +10° C bo'lganda yoppasiga paydo bo'ladi (Fadiv 1991). Qishda qor qoplami kam bo'lganda, quruq sovuq, shamol kam bo'lganda piyavitsa zarari ham shu yili kam bo'ladi, chunki qishlayotgan qo'ng'izlarning ko'pchiligi sovuqdan qirilib ketadi. (Osmolovskiy 1993 Bondorinko 1996).

Biz tajriba va o'trazgan yillarimizda esa qor qoplami qisman bo'ldi, piyavitsa soni esa iqtisodiy zarar keltirish darajasidan ancha oshib ketdi. Ana shularni inobatga olib piyavitsaga qarshi kurash tadbirlarini o'tqasdik.

Adabiyotlar sharhidan shuni xulosa qilish mumkunki bizning sharoitimizda piyavitsaga qarshi kurash tuzimi, uni biologiyasi va rivojlanishi dinamikasi yaxshi o'rganilmagan.

Shuning uchun ham biz o'z oldimizga piyavitsani rivojlanish dinamikasi va unga qarshi turli insektisidlar samaradorligini o'rganishni asosiy maqsad qilib qo'ydik.

## **II BOB.**

### **Kuzgi bug'doyni ahamiyati va agrotexnikasi**

Kuzgi bug'doy juda katta ahamiyatga ega bo'lgan ekin bo'lib, O'zbekistonni barcha viloyatlarida keng maydonlarda ekiladi. Kuzgi bug'doyni sug'oriladigan yerlarda ham ekib yuqori xosil olish mumkin.

O'zbekistonda ekiladigan bug'doyni 80 % kuzgi bug'doy hisoblanadi. Kuzgi bug'doy doni sifatli bo'lib non va non mahsulotlari makaron tayyorlanadi.

Somonini 100 kg da 20-22 oziqa birligi bor. Bug'doyni urig'i 1-2° C da una boshlaydi, ammo bu harorat maysalarni to'la hosil bo'lishi uchun yetarli emas, harorat 12-14° C bo'lsa, namlik yetarli bo'masa, kuzgi bug'doy maysalari 7-8 kundan keyin hosil bo'ladi.

Kuzgi bug'doyni normal tuplanishi uchun harorat -5° C gacha pasaysa to'planish protseysi to'xtaydi. Bug'doyni urig'i ekilgandan toki maysasi hosil bo'lguncha o'tadigan davirda 116-139 C° foydali harorat qabul qilishi kerak. Kuzgi bug'doy to'planish fazasiga kirgan holda qishlaydi bahorda o'sishni davom ettiradi. Kuzgi bug'doy namlikka talabchan ekin, butun o'suv davriga sarflangan namlikni 70 % i bahorgi o'sish boshlangandan gullashgacha bo'lgan davriga to'ri keladi. Jami namlakni 20 % ni gullashdan hosilini mum pishishgacha oladi. Uni transpiratsiya koeffisienti 400-500 %, kuzgi bug'doyni o'suv davri naviga va o'stirish holatiga qarab 240 kundan 320 kungacha, kuzgi bug'doyning ummanka, slavyanka, kroshka, chilloki sangzor navlari ekiladi.

Lalmikorlarda kuzgi bug'doyning asosan biologik jihatdan bahorgi formasi ekiladi ularni kuzda ham erta bahorda ham ekish mumkun. Kuzgi bug'doyning faqat kuzda ekiladigan biologik navlari lalmikorlikda ancha kichik maydonlarda o'stiriladi.

Kuzgi buyg'doy boshqa kuzgi g'alla ekinlariga qaraganda tuproqqa ancha talabchan bo'ladi. U yerning unimdor nami etarli va begona

o'tlardan toza bo'lishiga talabchadir. Ayniqsa qora kashtan tuproqli yerlarda undan mo'l hosil olinadi.

O'zbekistonda yumshoq va begona o'tlardan toza bo'lgan bo'z tuproqli yerlar kuzgi bug'doy uchun eng yaxshi hisoblanadi.

Shuningdek sug'oriladigan sharoitda o'tloq va o'tloq botqoq tuproqli yerlar juda qo'l keladi. Sho'rlangan yerlarda o'smaydi, tuprog'i yuvilib ketgan yerlar, shuningdek go'gn va mineral ug'itlar solinmagan qumloq tuproqli yerlar bug'doy ekish uchun ancha yaramaydi. Kuzgi bug'doyning ko'p navi mahalliy yumshoq bug'doy turkumiga kiradi. Bular o'rta osiyo ekologik guruhiga oiddir. Ular buyi uncha baland bo'lmasligi, poyasi dog'lar, ichi kovak bolishi, donni to'kilib ketmaydigan, asosan qiltiqli boshqoq tortishi, qiyin yanchilishi, doni yirik bo'lishi, doni yaltiroqligi o'simligi ser hosil ertapishar, qurg'oqchilikka chidamliligi va mahalliyliги bilan ajralib turadi.

Kuzgi bug'doy qishlab chiqqandan keyin oziq moddalarga juda talabchan bo'ladi.

Erta bahorda u rivojlanadi. Tuproqda o'simlik o'zlashtira oladigan shaklidagi oziq moddalari yetishmaydi.

Shunga ko'ra bu davrda o'simliklar azot, fosfor va kaliyga juda talabchan bo'ladi. Shu boisdan kuzgi bug'doyni erta bahorda mineral ug'itlar bilan oziqlantirish hosildorlikni 3-5 C<sup>o</sup> gacha oshiriladi.

Lalmikor dehqonchilik institutining ma'lumotiga ko'ra lalmikorlaridagi tekistlik – tepalik zonada kuzgi bug'doy shudgorda ekilganda mineral ug'itlar bilan oziqlantiriladi, ya'ni uch yil davomida hosildorlik o'rta hisobda, gektariga 30 kg azot, 60 kg fosfor, 60 kg kaliy solinganda hosil 3,7 s/ga ortgan.

Kontrol variantdan gektariga 11,34 s/ga dan hosil olingan, shu zonaning tuprog'i o'rtacha yuvilgan maydonlarida oziqlantirishining samaradorligi yanada yuqori bo'ib, gektariga 30 kg solish evasiga 4,5 s/ga,

30 kg azot 60 kg fosfor solish hisobiga 5,1 s/ga qo'shimcha hosil olish imkonini beradi.

Kuzgi bug'doy lalmikorlikda kuzning o'rtasi va oxirlarida ya'ni kuzgi yog'ingarchilik vaqtiga yaqin ekiladi. Bu vaqt oktyabr – noyabrga, ba'zan dekabrga to'g'ri keladi.

Kuzgi bug'doy ekish muddati lalmikorlik zonalariga ayrim rayonlarning geografik joylashishiga va kuzgi ob-havo sharoitiga bog'liq.

Lalmikorlikning tog'li zonasida sentyabr oyining ikkinchi yarmi va oraliq zonada noyabirning ikkichi yarmi va dekabr oyida kuzgi bug'doy ekiladigan eng qulay muddat hisoblanadi. Maysalar qishgi issiq kunlarda chiqadigan janubiy rayonlarda bug'doylarni noyabirda ekish kerak. Kuzgi bug'do agrotexnikasi bir qancha tadbirdan iborat bo'lib, ekishdan boshlab to shungacha bo'lgan agrotexnik ishlarni o'z ichiga oladi.

Har xil turdagi shudgor kuzgi bug'doy uchun asosiy o'tmishdosh hisoblanadi. Yer odatda bahoriy don ekilgandan keyin qora shudgor qilib quyiladi. Undan so'ng 25-28 sm chuqurlikda asosiy shudgor o'tqaziladi. Kuzgi bug'doy 1 s don va tegishli miqdorda poxol hosil qilishi uchun o'rtacha 3,7 kg azot, 1,3 kg fosfor va 2,3 kg kaliy o'zlashtiriladi. O'g'itlar har xil tuproqli yerlarda ham kuzgi bug'doy hosilini oshiradi.

Yerni chuqir haydashdan oldin yoki qayta haydashda shudgorda organik va mineral moddalar solinsa o'simliklar butun vegetatsion davri davomida oziq moddalar bilan yaxshi ta'minlanadi. Hamda kuzgi ekinlar hosili ancha ortadi.

Urug' ekish bilan birga gektariga 15-20 kg hisobidan qatoriga qonador superfosfat solish hosilini va kuzgi bug'doyning qishga chidamliligi ancha oshadi. Kuzda azot bilan oziqlantirish kuzgi bug'doyni hosildrligini gektariga 3 s/ga oshirish imkonini beradi. Don tarkibidagi oqsil va kleykovina miqdorini oshirishi uchun, ayniqsa bug'doy boshloqlashdan to'lishish fazasida o'simliklarni bargida azot bilan oziqlantirish muhim ahamiyatga ega.

Urug'ni ekishga tayyorlash muhim ahamiyatga ega bo'lib, asosiy agrotexnik choralardan biri hisoblanadi.

Maysalar qiyg'os unib chiqishi uchun yirik maydaligi bir xil bo'lgan va to'q urug'larni ekish juda ham muhim.

Havo harorati 14 – 17° C issiqlik kuzgi bug'doy ekish uchun qulay optimal harorat hisoblanadi. Bu vaqda ekilgan kuzgi bug'doy qishgacha 3-4 poya chiqaradi, yer ustki qismlari va ildizi yaxshi avj oladi. Muddatidan ilgari yoki kechikib ekilgan kuzgi bug'doyning qishga chidamliligi past, bo'lib qoladi, hosili kamayib ketadi.

Kuzgi bug'doyning qulay agrotexnik muddtlarida ekish maysalarining qo'ng'ir zang va shved pashshalari bilan zararlanmasligiga imkon beradi. Kuzgi bug'doy kuzda 45-55 kun yaxshi rivojlanadi.

Kuzgi bug'doydan mo'l hosil olishda ekish usullari muhim ahamiyat kasb etadi.

Kuzgi bug'doy yoppasiga qatorlab tor qatorlab va ikkitomonlama (shaxmat usulda ) ekiladi.

Bug'doyni yoppasiga qatorlab ekishda qatorlar orasini 15 sm dan qilib, SU -24 SUK-24 A seyakalarida ekiladi.

Tor qatorlab ekishda SUB -48 va SUB -48 U seyakalarida ekiladi.

Bug'doyni ekish normalari tuproq iqlim sharoitiga, unimdoligiga navning xususiyatlariga va ekish usuliga bog'liqdir. Kuzgi bug'doy ekish normasi yuqorida aytilgan xususiyatlariga qarab 3 mln donadan 6 mln donagacha ekiladi. Zarur bo'lgan hollarda ekish normasini 10 % gacha oshirish mumkin.

Urug' ekish chuqurligi ham muhim agrotexnik choralaridan hisoblanadi.

Bug'doy urug'i qancha chuqur ekilsa tuplanish bo'g'ini shuncha chuqur joylashadi. O'simlikni qishga chidamliligi shuncha yuqori bo'ladi.

Urug' ekish chuqurligi tuproq holatiga qarab 3-9 sm chuqurligicha ekiladi.

Ekinlarni kuzda parvarish qilish agrotexnika chora tadbirlarni biri hisoblanadi. Dalaga ekin ekilgandan tezda halqali yoki keskin katok bostiriladi. Bu tuproqning chuqur qatlamlaridan kapillyar namlikni oqib chiqishiga, kuzgi ekinlar maysasini qiyg'os unib chiqishiga hamda kuzdan boshlab to'planishiga yerdam beradi.

Ekinlarni bahor, yozda parvarish qilish, erigan qorlarni to'sish o'simliklarni oziqlantirish va boranalashdan iborat. Kuzgi ekinlar asosan rotatsion motigada boranalanadi, chunki ular tuproqni yaxshi maydalaydi va o'simlikni deyarli shikastlamaydi.

Umuman yuqoridagi barcha agrotexnik chora tadbirlarni o'z vaqtida sifatli qilib o'qazish mo'l hosil olish garovidir.

### **III BOB.**

#### **Dala tajribalarni o'tkazish joyi va tuproq iqlim sharoiti.**

##### **3.1 Tajriba tizimi va uslibi.**

Biz dala tajribamizni Samarqand viloyati Bulung'ur tumanidagi "Omon bobo" fermer xo'jaligi dalalarida qo'yidagi tizimda olib bordik.

1. Nazorat varianti – bu variantda piyavitsaga qarshi hech qanday kurash chorasi qo'llanilmadi.
2. Desis – 2.5 % emmulsiya konsentrat, piyavitsaga qarshi 0.25 l/ga miyorida purkaladi.
3. Karate -5 % konsentrat emmulsiya, pitavitsaga qarshi 0.2 l/ga miyorida purkaladi.
4. Nurell –D -55 % emmulsiya konsentrat, piyavitsaga qarshi 0.5 l/ga

miyorida purkaladi. Tajriba 4 variantda va qaytariqdan iborat bo'lib, bug'doyni Sangzor -6 navi ekildi. Tajriba payakallarini uzunligi 50 m bo'lib, eni 10 metirni tashkil etadi. Har bir paykal maydoni 500 m<sup>2</sup> bo'lib, tajribani umumiy maydoni 8000 m<sup>2</sup> ni tashkil etadi. Har bir variantdan 10 joydan 0.25 m joydagi o'simliklar kuzaatiladi, shu o'simliklarda har 10 kunda fenologik kuzatishlar olib boriladi.

Barcha fenologik kuzatishlar VIZR va UzNIIR metodikasi bo'yicha o'tkaziladi. Piyavitsani rivojlanishi zararlilik xususiyati, bug'doyni o'sish va rivojlanish har o'n kunda shu tanlab olingan o'simliklarda kuzatib turiladi. Tajriba qo'llanilgan kimyoviy kurash choralari olingan ma'lumotlar asosida o'tkaziladi.

Qo'llanilgan kimyoviy kurash choralarini biologok samaradorligi zararkunandakarni tadbir qo'llashdan oldingi va qo'llashdan keyingi soniga qarab, nazorat variantiga solishtirib Gendirson Tilton formulasi buyicha aniqlanadi. Bu fomula quyidagicha bo'lib

$$M = \left(1 - \frac{T_A}{C_a} * \frac{C_b}{T_b}\right) * 100$$

Bunda M \_\_ biologik samaradorlik %

To \_\_ kimyoviy ishlov berilgadan keyin qolgan maydonidagi ishlovdan oldingi zararkunanda soni dona.

Co \_\_ nazorat maydonidagi ishlovdan oldingi zararkunanda ishlov berishdan oldingi zararkunanda soni dono.

Qo'llanilgan kimyoviy vositalarni iqtisodiy samaradorligi esa umum qabul qilingan uslublar asosida hisoblanadi

### 3.2 Tuproqlari.

„Uzgirozim” instituti malimotlariga qaraganda Bulung`ur tumani Omon bobo fermer xo'jaligi tuproqlarni tipik bo'z tuproqlardir.

Sizot suvlarning joylashisg chuqurligi 8-20 m mexanik tarkibiga ko'ra o'rtacha va og'ir qumoq tuproqlar asosiy maydonni egallaydi.

Tuproqlada gumusning o'rtacha miqdori 1.1-1.3 %, PH-7.1-7.2, yalpi azot 0.09%, yalpi fosfor 0.06-0.07 %, yalpi kaliy esa 104-1.43 % ni tashkil etadi.

Xo'jalik tuproqlari asosiy lalmi erlarda bo'lib, bir qismi shartli sug'oriladi. Bu tuproqlarda yuqori agrotexnika qo'llab qishloq xo'jalik ekinlaridan mo'l va sifatli hosil olish mumkun.

### 3.3 Iqlim.

Xo'jalik iqlim jihatidan keskin kontinental iqlim mintaqada joylashgan, iqlim sharoiti uzoq davom etadigan issiq yoz hamda uncha sovuq bo'lmagan qish davom etishi bilan tariflanadi.

Asosiy metrologik sharoitda N° 1\_\_ jadvalda Samarqand metiostansiyasi malimotlari orasida keltirilgan.

**Tadqiqot o'tkazilgan yillarning metrologik sharoiti.**

**Samarqand agrometostaniya ma'lumoti**

**1-jadval**

Ko'rsatgichlar	O'suv davri									yillik yog'in miqdori	o'suv davri o'rtacha	No o'suv davri			NO o'suv davri o'rtacha
	2012			2013											
	X	XI	XII	I	II	III	IV	V	VI						
<b>Havo harorati C<sup>0</sup></b>	14.9	7.6	6.1	3.0	4.1	8.5	14.6	18.1	2.5	-	11.3	26.8	24.1	18.9	29.26
<b>Tuproq harorati C<sup>0</sup></b>	19.1	10.8	9.2	4.5	3.4	10.1	14.2	19.3	29.4	-	13.3	30.7	28.4	24.5	27.85

<b>Atmosfera yog'inlari mm</b>	0.0	21.3	54.8	39.5	21.4	100.8	95.4	20.3	0.5	3.53	0	0	0	0	0
------------------------------------	-----	------	------	------	------	-------	------	------	-----	------	---	---	---	---	---

Qor qoplami 15-88 sm gacha yetadi, lekin qor qoplami muntazam bo'lmay, ayrim yillari juda ham kam yog'adi.

O'simliklarni birinchi sovuq urishi o'rtacha 18-20 oktyabirlarga to'g'ri keladi. Lekin ayrim yillari 3 – oktyabirda ham kuzatiladi. Oxirgi bahogi sovuq urishi xolatlari o'rtacha 8-13 – mart oralig'da to'g'ri keladi. Shunday qilib sovuqsiz davir o'rtacha 215-220 kun davom etadi.

Atmosfera yog'ingraining o'tacha miqdori 312 mm bo'lib ayrim yillari 420 mm atrofida bo'lishi ham kuzatiladi.

Xo'jalik hududida shamolning o'rtacha tezligi 4-6 m/sek bo'lib, kamdan kam holatda 9-10 m/sek da etadi. Yoz oyiari da esa garmsel bo'lishi ehtimoli mavjud.

### **3.4 Tajribada qo'llanilgan kimyoviy periparatlar va bug'doy navi tarifi.**

Dala tajribamizda quyidagi ruxsat etilgan kimyoviy preparatlardan foydalandik.

Disis -2.5 % li emulsiya konsentirati bo'lib, Germaniyaning „Bester Kiropsoyens“ firmasi tomonidan ishlab chiqildan. Ta'sir etuvchi moddasi –deltametrin. Bug'doyga xasva va shilimshiqurt, shira va tripslarga qarshi 0.25 l/ga miqdoriga qo'llash tafsiya etiladi.

Desis qo'llashni oxirgi muddati hosilni yig'ishga 20 kun qolganda to'xtalishi lozim.

Karate – 5 % emulsiya konsentirati bo'lib, Shvetsariyani „Singenta“ fermasi tomonidan ishlab chiqilaqi. Tasir etuvchi moddasi liyabdasigolotrim. Kuzgi bug'doydagi xasva shilimshiqurt, va tripslarga qarshi 0.2 l/ga miyorida qo'llash tavsiya etiladi.

Karate qo'llashning oxirgi muddati hosilning yig'ishga 20 kun qolganda to'xtatiladi.

Nurell – D-55 % li emulsiya konsentirati bo'lib AQ`SH ning „Day Agtrosoenses“ firmasi tomonidan ishlab chiqiladi.

Tasir etuvchi moddasi ikkita bo'lib, buni 5 % sipermetrin va 50 % xlorpirifos tashkil etadi.

Bug'doyning kompleks so'ruvchi va kemiruvchi zararkunandalariga qarshi 0.5 l/ga miyorida qo'llash tavsiya etilgan, oxirgi qo'llash muddati hosilni yig'ilguncha 30 kun qolganda to'xtatiladi.

### **Kuzgi bug'doyni lalmikorlikdagi etishtiriladigan Sangzor -6 navi tarifi.**

Ushbu nav O'zbekiston donchilil ilmiy tekshirish instituti („Don'' ilmiy ishlab chiqarish birlashmasi ) yaratilgan.

Tur xli- eritrospermum, ikki fasilli (duvarak), biologik kuzgi, boshog'i prizmasimon, o'rtacha uzunlikda va zichlikda joylashgan,

Doni dumaloq shaklda va yirik, 1000 dona don vazni 37.0 45.0 gram, ertapishar, o'suv davri 145 -147 kun.

O'rtacha hosildorligi 18-20 s/ga.

## IV BOB

### Tajriba natijalari

Piyavitsa (shilimshiqqurt) ni biologiyasi va rivojlanishi.

Piyavitsa keng tarqalgan zararkunanda bo'lib, qo'ng'zianing uzunligi 4.6 mm, tanasi cho'zinchoq, rangi yashilsimon, qanot usti yashil – ko'kish bo'lib, nuqtachalar qatori yaqqol ko'rinib turadi.

Tuximi uzinchoq ova,1 sariq rangli lichinkasining bo`yi 5 mm, rangi och sariq yoki oqish, boshi qora, sirt tomonida o'zining axlatidan iborat bo'lgan qo'ng'ir tusli shilimshiq modda bilan qoplangan bo'ladi.

G'umbagining uzunligi 4-5 mm, tuproqning 5 sm li qatlamida ko'zachasimon tuproqdan yasalgan pillada joylashgan.

Zararkunanda qo'ng'izlari mart oxiri aprel boshlarida aniqrog'i tuproqning 5 sm li qatlamidagi o'rtacha sutkalik harorat +8<sup>0</sup>C bo'lganda chiqa boshlaydi harorat +10<sup>0</sup>C bo'lganda esa qo'ng'izlari ommaviy cgiqadi va g'alla maydonlari bo'ylab tarqaladi. Qo'ng'izlari qishlash joyidan o'rtacha 12-15 km radiusga tarqaladi. Qo'ng'izlari dastlab qo'shimcha oziqlanadi va uyg'ongandan so'ng taxminan 2 – hafta o'tgach bug'doy barglari yuzasiga 2 - 4 tadan tuxim quyadi, urug'ochi qo'ng'iz taxminan 200 dona tuxim quyadi.

Tuximdan haroratga qarab 3-6 kunda lichinka chiqadi va ular barg etini yeb, faol assimilyatsion yuzani kamaytiradi. O'z axlati bilan bargni ifloslaydi va shu yo'l bilan hosilga jiddiy zarar etkazadi, oziqlanishini tugatgan lichinkalar (5 yoshlisi ) tuproqqa tushib g'umbakka aylanadi, 12 -14 kun orasida g'umbakdan qo'ng'izlar chiqib ular er yoriqlari, kesaklar orasida yoki tuproqlarning yuza qavatida qishlaydi.

Shilliqqurt yiliga bir marta avlod beradi.

#### 4.2 Tajriba mobaynida piyavitsani rivojlanish dinamikasi.

Biz tajribada piyavitsani rivojlanishini qoimiy ravishda kuzatib bordik. Kuzatish natijalarini ko'rsatishicha uni qo'ng'zilarini qishlovda chiqishi.

## Bulung`ur tumani sharoitida pyavisa (shilimshiqqurt) ni rivojlanishi dinamikasi

Yanvar			Fevral			Mart			Aprel			May			Iyun			Iyul			Avgust			Sentyabr			Oktyabr			Noyabr			Dekabr					
I	II	III	I	II	III	I	II	III	I	II	III	I	II	III	I	II	III	I	II	III	I	II	III	I	II	III	I	II	III	I	II	III	I	II	III			
(+)	(+)	(+)	(+)	(+)	(+)	(+)	(+)	(+)	(+)	(+)	(+)	-	-	-	-	-	-	0	0	0	(+)	(+)	(+)	(+)	(+)	(+)	(+)	(+)	(+)	(+)	(+)	(+)	(+)	(+)	(+)	(+)	(+)	(+)

**(Fenologik jadval) 2012-2013**

Shartli belgilar: (+) – uyqudagi qo`ngiz (imogo)

(+)- qo`ngiz (imogo)

.\_ -tuxum

- -qurt (lichinkasi)

0-gumbagi

2- jadvalda keltirilgan ma`limotlar bo`yicha mart oyining 3-dekadasida va aprel oyining 1- dekadasi ruy beradi ammo aprelning 3- dekadasi ham kam sonli qo`g`izlarni ko`rish mumkin edi.

Tuxum quyish aprelning 14 – kundan 28 – aprelgacha davom etadi. Lichinkalik davri aprelning 25- kunda boshlab 2-9 maygacha davom etadi. Iyun oyida esa lichinkalar gumbaklash uchun tuproqqa kirib ketadi.

Qazib kuzatish ishlarini ko`rsatishicha 24-28 kunda ya`ni iyun oyining 26 kundan boshlab g`umbakdan qo`ng`izlar chiqa boshladi va tuproq yoruqlari kesakchalar ostida qishlovga ketadi.

Fenologik kuzatish natijalari shuni ko`rsatadiki maydonlarda piyavisa qo`g`iziga qarshi kimyoviy kurash ishlarni ular qishlovdan chiqqan aprelning 1- dekadasi lichinkalariga qarshi kurashni esa may oyining 1- dekadasi o`tkazish maqsadga muvofiqdir.

#### **4.3 Piyavitsaga qarshi qo`llanilgan kimyoviy preparatlarni biologik samaradorligi.**

Biz kuzatuv natijalaridan kelib chiqib tajriba sxemasiga asosan desis, karate va nurell -D preparatlarining 30 – aprel kuni ya`ni lichinkalarni 1 yoshli davrida paykallarga qo`l purkagichi yordamida purkadik. Bu vaqtda qo`ng`izlar tuxum qo`yishni tugallab o`lib ketgan edi, tuxumlarning esa 95 % dan lichinkalari chiqib ulgurmagan edi. Kuzatuv natijalari quyida keltirilgan.

**Piyavitsa lichinkalariga qarshi kimyoviy kurashni bipologik samartadforligi.**

**3-jadval.**

Variantlar	Pereparat qo'llashdan oldin 100 poyadagi lichinka soni.	Pereparat purkalgandan so'ng lichinka soni.			Biologik samaradorlik %.		
		3 -kun	7-kun	10-kun	3-kun	7-kun	10-kun.
Nazorat	125	125.2	123.0	121.0	—	—	—
Desis 0.25 l/ga	137	20.4	14.2	10.5	85.4	90.5	92.3
Karate 0.2 l/ga	141	22.3	12.7	14.1	84.2	86.7	90.0
Nurel-D 0.5 l/ga.	139	14.0	10.5	3.5	89.9	92.9	97.5

Jadval natijalaridan ko'rinib turibdiki amalda qo'llanilgan kimyoviy preparatlarning hammasida ham biologik samaradorlik 10 kunga borib 30 % dan yuqori bo'ladi, ammo Nurell- D – qo'llanilgan variantda bu ko'rsadgich eng yuqori natijani ko'rsatadi va 97.5 % ni tashkil etadi. Nazorat variantida esa zararkunanda soni kamayishi tabiiy kushandalar – entofoglar hisobiga bo'lganligi e'tirof etiladi.

Shilimshiqqurt lichinkalari o'simlikdan o'simlikka o'ta olmaydi va shuning uchun ham lichinkalar sonini o'simlikdagi soni oshmaydi.

Nurell- D preparati qo'llanilgan variantda biologok samaradorlikning yuqori bo'lishi Nurell-D preparati tarkibida tasir etuvchi moddaning ikkita bo'lganligi va u ham so'ruvchi ham kemiruvchi zarartkunandalarga qarshi kurash uchun mo'ljallanganligi bilan ifodalanadi.

#### **4.4 Tajriba mobaynidagi kuzgi bug'doyni o'sishi va rivojlanishi**

Tajriba lalmikor dehqoncgilik sharoitida olib borildi.

2011 yilning 18 noyabr kuni dalaga lalmi kuzgi bug'doyni sangzor -6 navi ekildi.

10-12 kun ichida to'liq ko'chat olindi. Bunda ekishni miyori 130 kg/ga ni yoki 3 mln dona unuvchan urug' ekildi. Kuzgi bug'doy qishlovga ketguncha 2.5- 3.0 ta tup hosil qildi. Bahorda qishlovdan chiqib o'sish va rivojlanishni davom ettirdi. Aprel oyining 20 kunlarida bug'doy boshloqlashga kirdi.

Yoppasiga boshloqlash may oyiuning o'n kunlarida to'g'ri keldi. May oyining oxiriga borib o'simliklar sut pishish fazasiga borib kelishdi. Iyun oyining yarmiga borib donlar pisha boshladi. Iyun oyining 3 dekadasida to'liq pishish davri boshlandi.

Tajriba dalasida bug'doyni 26- iyun kuni yig'ib olishga kiritildi. Tajriba maydonida o'rtacha hosildorlik variantlar bo'yicha turlicha bo'ldi.

#### 4.5 Kuzgi bug'doyni tajriba dalasidagi hosildorligi.

Ma'lumki har qanday zararkunanda hosil miqdori va sifatiga u yoki bu darajada salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bizning dala tajribalarimizda ham shilimshiqurt (piyavitsa) ga qarshi kurashda kimyoviy preparatlarni qo'llanishi ham hosildorlikka ijobiy ta'sir qilishi kuzatiladi.

#### Hosildorlik natijalari.

4 – jadval.

Variantlar	Qaytariqlar bo'yicha hosildorlik.s/ga				O'rtacha hosildorlik.s/ga	Qo'shimcha hosil.	
	I	II	III	IV		s/ga	%.
Nazorat	10.1	11.6	11.3	12.6	11.4	—	—
Desis 0.25 l/ga	17.4	11.0	16.9	15.3	16.4	5.0	43.8
Karate 0.2 l/ga	15.0	15.9	15.1	14.8	15.2	3.8	33.3
Nurel-D 0.5 l/ga.	20.1	19.2	19.3	19.0	19.4	8.0	70.1

Jadval natijalaridan ko'rinib turibdiki kimyoviy preparatlar qo'llashni xo'jalik samaradorligi Desis qo'llanilgan variantda 5 s/ga, karate qo'llanilganda 3-8 s/ga yoki eng yuqori bo'ldi. Har qanday shroitda ham kimyoviy moddalar qo'llanilganda qo'shimcha hosil olindi va bu ko'rsatgich nazorat variantiga nisbatan Nurell – D qo'llanilgan, variantda 70 % ga ko'p bo'ldi. Budan shunday xilosa qilish mumkinki, har qanday holatda ham zararkunandalar soni (bizning ishimizda pyavitsa lichinkalar soni) iqtisodiy zarar keltirish chegarasidan ortganda (bizning ishimizda 100 poyada 50 lichinka ) kimyoviy ishlov berish zarurdir.

Qishloq xo'jaligining turli sohalarida turlicha ammo o'simliklarni himoya qilish sohasida sarflangan har bir so'm 3-12 so'm qaytimi bilan keladi.

T/r	Variantlar	Don hosili s/ga	Jami xarajat so'm/ga	Hosilni sotishdan olingan daromad so'm/ga.	Shartli sof foyda so'm/ga	Don tannarxi so'm/%.	Rentabellik %.
1	Nazorat	11.4	390450	410400	19950	34250	5.1
2	Desis	16.4	499544	590400	90856	30460	18.1
3	Karate 0.2 l/ga	15.2	480928	547200	66272	31640	13.7
4	Nurel-D 0.5 l/ga.	19.4	532336	698400	166064	27440	31.2

Jadval ma`limotlaridan ko'rinib turibdiki (narxlar amaldagi ko'rsatgichlar asosida hisoblandi) nazorat variantida shartli sof foyda 1995 so'm/ga va rentabellik darajasi 5.1 % ni tashkil etilgan bo'lsa, bu ko'rsatgichlar preparatlar qo'llanilgan barcha variatlarda ancha yuqori bo'ladi.

Ayniqsa Nurell D-0.5 l / ga qo'llanilgan variantga esa sartli sof foyda 166064 so'm/ga va rentabellik darajasi 31.2 % ni tashkil etib, eng arzon mahsulot etishtirildi.

## **VI BOB.**

### **Hayot faoliyati xavfsizligi va ekologik muammolar**

#### **1. QXI da ayollar va o'smirlar mehnati ta'qiqlangan ishlar.**

Ayollar mehnatini muhofaza qilishda juda ko'p muammolar bo'lib , uning biologik va sosial ahamiyati muhimdir. Shuning uchun ayollar mehnati, mehnat kodeksining (224-238-moddalar) da himoyalanaadi.

Ayollar mehnatini ta'qiqlaydigan noqulay mehnat sharoitlardagi ishlarning ro'yxati va yuklarni ko'tarishda hamda qo'zg'atishda me'yorlashtirilgan yuklarning sanitariya me'yorlari "O'zbekiston Respublikasining mehnat kodeksiga asoslanib mehnat muhofazasi bo'yicha me'yoriy hujjatlar to'plami 1996 " da keltirilgan.

Bolasi o'n to'rt yoshga to'lmagan o'n olti yoshga to'lmagan (nogiron bolasi) bo'lgan homiladar ayollarni ularning chozilgisiz tungi, ish vaqtdan tashqari ishlarga dam olish kunlaridagi ishlarga jalb qilishga va xizmat safariga yuborishga yo'l qo'yilmaydi shu bilan birga bolasi uch yoshga to'lmagan homiladan ayollarni ona va bolaning sog'lig'i uchun xavf tug'dirmasligini tasdiqlovchi tibbiy xulosa bo'lgan taqdirdagina tungi ishlarga qo'yiladi (228-modda).

Ayollarni onalik vazifalaridan foydalanish maqsadida quyidagi moddalarda bir qancha imtiyozlar beriladi.

Homilador va bola tuqqan ayollarga ularning hoxishiga ko'ra, homiladorlik va tug'ish ta'tilidan oldin yoki undan keyin yoxud bolani parvarishlash ta'tildan so'ng yillik ta'tillar veriladi. Ayollarga tuqqanga qadar 70 kalendar kun va tuqqanidan keyin 56 kalendar kun muddat bilan homiladorlik va tug'ish ta'tillari berilib, davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqa to'lanadi.

## **6.1. Uzum ishlab chiqarishda kimyoviy moddalardan foydalanishda xavfsizlik choralari**

Kimyoviy moddalarning insonga ta'siri ular bilan bevosita (aralashmalar tayyorlaganda, urug'larga, tuproqqa, o'simliklarga ishlov berishda ishlov berilgan uchatkalarda ishlaganda) va bilvosita –o'simlik, oziq-ovqat mahsulotlari orqali kimyoviy preparatlar bilan ishlov berilgan dalalardan olingan meva-sabzavotlar, shuningdek, hayvonot mahsulotlari orqali (go'sht, tvorog, sut, tuxum va boshqa) va o'simlik mahsulotlari yem sifatida ishlatilganda qaysilari tarkibida nitrat va pestisidlarning miqdori me'yoriy ko'rsatkich darajasidan yuqori bo'lganda seziladi.

Himoyalovchi (izolyalovchi) shaxsiy himoyalash vositalari, shlem- niqobga shlang arqali toza doiradan o'zi tortish yo'li (RSk-1) bilan yoki kompressor yordamida (RSk-3) va mustaqil yoxud shlem-niqobga toza havo ko'chma ballonlardan (ASV-2) beriladi.

Gazga qarshi nafas olish shaxsiy himoyalash vositalari bo'g' gazsimon moddalardan himoyalashga mo'ljallangan. Ishlatiladigan respiratorlar RHG-67 (10-MRG gacha). Sanoat gazniqoblar MKR (100 MRM gacha) va VK (100 MAN dan yuqori). Respiratorlar almashtirib bo'ladigan filtrlovchi patronlar, gazniqoblar va ma'lum zararli moddalardan himoyalovchi filtrlovchi qutilar bilan ta'minlangan. Ular havo yutgichlar yordamida tozalanadi. Yutgichlar aktivlashtirilgan ko'mir va kimyoviy sorventdan tarkib topgan bo'lib, qanday zararli gazdan himoyalashga qarab uning tarkibi aniqlanadi.

